



**RIVOJLANISHIDA NUQSONI BOR SHAXSLARNI TA'LIMGA  
KIRIB KELISH VA KASBGA YO'NALTIRISH JARAYONI**

*Xoziakbarova Madinaxon Oqilovna*

*Xalqaro Kimyo International Universiteti*

*Maxsus Pedagogika talabasi*

*[madinaxoziakbarova@icloud.com](mailto:madinaxoziakbarova@icloud.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada rivojlanishida nuqsoni bo'lgan shaxslarni jamiyatga va ta'limga sohasiga kirib kelish davri hamda hozirgi davrda ularni kasbga yo'naltirishda ko'rilib qiyinchiliklar va qulayliklar haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** eksklyuziya, segregatsiya, stereotip, diskriminatsiya, tendensiya, sterilizatsiya, inklyuziya.

**Annotation:** This article discusses the period of integration of individuals with developmental disabilities into society and the education sector, as well as the challenges and conveniences they face in career guidance today.

**Keywords:** exclusion, segregation, stereotype, discrimination, tendency, sterilization.

### **Kirish**

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga ta'limga va tarbiya berish hamda ularni kasbga yo'naltirish muammosi ko'plab davlatlarda, shu qatorda O'zbekiston ta'limga tizimida ham asosiy dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda, ularga to'g'ri yo'l tanlash lozimdir. Stereotip va kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik, ijtimoiy me'yorda rivojlanishda nuqsoni bo'lgan insonlarga nisbatan mavjud salbiy stereotiplar ularni ta'limga olishga to'siq bo'lishi mumkin. Jamiyatda ushbu stereotiplarni yo'q qilish va teng huquqli sharoitlar yaratish zarur.

**Rivojlanishida nuqsoni bor bolalar uchun ta'limga rivojlanishini tarixiy jihatga nazar solish.** Rivojlanishida nuqsoni bor bolalar uchun ta'limga rivojlanishini



tarixiy jihatga nazar solsak, bir qancha xatolar va kamchiliklarni ko'rishimiz mumkin. Lekin hozirgi kungacha bu kamchiliklar qanchagina bartaraf etildi?

Yevropada 20-asrning 1900-yillaridan boshlab Eksklyuziya (lotincha excludere - chetlatmoq, ajratmoq) tizimi yuzaga kelgan. Bu davrlarda rivojlanishida nuqsoni bor shaxslarga salbiy tushunchalar qo'yilgan. Ularni har tomonlama jamiyatdan chiqarishga harakat qilishgan: maktablardan, ish korxonalardan, mehnat bozorlardan, kundalik hayotdan ajratishga urunishgan. Ular alohida hududlarda yashashgan. Nogironligi bor shaxslarga qattiq diskriminatsiya va eksklyuziya siyosati kuchaygan. Germaniya va Skandinaviya davlatlarida ba'zi insonlar sterilizatsiya qilinishi kerak deb qaror qilingan. Germaniyada natsistlar davrida rivojlanishida nuqsoni bor nogiron insonlarga "Xudoning la'nesi kelgan", "jinlar aldagani insonlar", "hayotga noloyiq" deb qarab, ularni jamiyatdan uzoqlashtirishga harakat qilishgan. Yana boshqa davlatlarda ham rivojlanishida nuqsoni bor shaxslar shu kabi muammolarga duch kelishgan. Keyinchalik ilm dan rivojlangani sari, nogiron insonlarga qarashlar ham o'zgara boshladи, so'ng sergeratsiya davri kirib keldi. Sergeratsiya Davri (1960-1970 yillar) 20-asrning 60-yillariga kelib, segregatsiyalash (lotincha segregatio - ajratish) tizimi – ya'ni biron bir irq yoki etnik guruhni alohida ajratib qo'yish, ya'ni chegaralangan hududga ixtiyoriy yoki majburlab ko'chirib yuborish, yoki alohida mакtab, alohida transport vositalari, alohida xizmat ko'rsatish korxonalarini tashkil etish, yoki boshqa diskriminatsiya choralar orqali ajratib qo'yish amalga oshirilgan. Ammo bu holatda nogironligi bo'lgan shaxslarda jamiyatga qo'shilish va ijtimoiy hayotga moslashish sustlashib ketgan. Bir xil darajadagi bolalarning o'zaro muloqoti nutqning rivojlanmasligiga olib kelgan. Ijtimoiy adaptatsiya pastligi sababli, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan shaxslar jamiyatga qo'shilishni istamay qolganlar. Ularni o'z oilasidan va ota-onasidan uzoqda alohida hududlarda yashash qiyinchiliklari tug'dirgan. XIX asrning ohirigi kelib, turli epidemiyalar, kasalliklar natijasida nogiron insonlar soni orta boshladи. Hamda jamiyatda endilikda ularni faqatgina tibbiy ahvolini o'rganib qolish bilan cheklanmasdan ta'limiy ahvoliga ham e'tibor berila boshlandi. Shundan so'ng yangi tizm integratsiya atamasiga pedagogika sohasiga kirib keldi. Integratsiya davri



1970- yilning oxiridan 1980- yilning boshlariga qadar davom etgan. Integratsiya (lotincha integratio - tiklash, to'ldirish) jarayonlari asta-sekinlik bilan rivojlanib, davlatlar bo'yicha farqlar qilsa-da, umumiyligi tendensiya rivojlanishida nuqsoni bor shaxslarni jamiyatga qo'shish yo'lida muhim qadamlarga asoslangan edi. Bu davrga kelib, rivojlanishida nuqsoni bor bolalar uchun umumiyligi o'rta ta'lim muktablarida alohida sinflar ochildi. Rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni jamiyat normal sharoitga moslashtirish kerak edi. Bu davrda ular sog'lom shaxslar bilan bir muktab va bog'chaga borar, ammo ular uchun alohida o'qituvchi va alohida sinflar tashkil etilgan edi. Bu amaliyot ham ularni jamiyatga to'laqonli qo'sha olmagan edi. Sababi ta'lim tizimi o'zining standart metodlarini saqlab qolgan holda nogiron o'quvchilarni o'qitar edi, bu rivojlanishida nuqsoni bor o'quvchilar uchun ancha qiyinchilik tug'dirgan. Uyg'onish davridan to bugunga qadar alohida yordamga muhtoj bolalarni endilikda birgalikda o'qitish dolzarb muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Inklyuziya (1980- yillardan xozirgi kungacha) Inklyuziya (fransuzcha inclusif - o'z ichiga oladi) degan ma'noni bildiradi. Bu yondashuv ancha kengroq va zamonaviydir; bunda o'quvchilar qaysi ehtiyojga ega bo'lishidan qat'iy nazar teng huquqlidir. Bu ta'lim turi 20-asrning 80-yillaridan boshlab hozirgi kungacha qo'llanib kelinmoqda. Inklyuziyada rivojlanishida nuqsoni bor bolalarga muktab va boshqa o'quv muassasalarini moslashtirish kerak. Misol uchun, rivojlanishida nuqsoni bor bolalar endi sog'lomlar qatorida bir sinfda, bir partada o'tirib ta'lim olish huquqiga ega. Ular uchun muktab va boshqa o'quv muassasalari moslashishi kerak. Misol uchun, umumiyligi o'rta ta'lim muktabiga rivojlanishida nuqsoni bor bola kelsa va u zaif eshituvchi bo'lsa, maxsus qulochchinlar va maxsus mikrofonlar, harakat tayanch a'zolarida nuqsoni bor bola bo'lsa, zinolarga panduslar qo'yib, ular uchun barcha qulayliklar yaratilishi kerak. Bu ta'lim turida jamiyatda nogironligi bor insonlarga bo'lgan notog'ri fikrlar o'zgaradi. Inklyuzianing maqsadi jinsi, irqi, millati, dini, nuqsoniga qaramasdan jamiyatga qo'shish va eksklyuziyani oldini olishdir.

Xozirgi kunda O'zbekiston Ta'lim Tizimida Inklyuziya Hozirgi kunda O'zbekiston ta'lim tizimida inklyuziya qo'llanib kelinmoqda. bu tizim



rivojlanishida nuqsoni bor shaxslarni kasbga yo'naltirishga qanchalik xizmat qilmoqda? Ular umumiy kasb-hunar kollejlarida yoki oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olishlari juda qiyin bo'ladi, sababi ularning ehtiyojlariga ta'lim metodlari mos kelmaydi. Ular qiyinchiliklarsiz bilim olib, kelajakda o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishlari va jamiyatga foydali shaxs bo'lib yetishishlari uchun maxsus kasbiy ta'lim dasturlari ishlab chiqilishi kerak.

### **Maxsus o'quv markazlarining yetishmasligi**

Nega rivojlanishida nuqsoni bor bolalar uchun alohida turli chet tillarini o'rgatadigan o'quv kurslar O'zbekiston hududida ko'rinxaydi? Ular uchun maxsus o'quv markazlar yo'q. Agar rivojlanishida nuqsoni bor bolalar uchun maxsus o'quv markazlar masalan, avto maktablar ochilsa, yanada kelajakda o'z kasblarini topishlari oson bo'lardi.

### **Rivojlanishida nuqsoni bor shaxslar uchun maxsus ish o'rirlari yo'qligi**

Nega ish korxonalarda rivojlanishida nuqsoni bor shaxslarga alohida bo'sh ish o'rirlari yaratilmagan? Rivojlanishida nuqsoni bor shaxslarni mehnat bozorlarida va ish korxonalarida, hatto jamiyatga qabul qilishda cheklovlar mavjud. Korxonalarda bo'sh ish o'rni bo'lsa, u yerga ishga kirish taklifi bilan sog'lom va nuqsoni bor shaxs kelsa, hech ikkilanmay sog'lom shaxsni ishga qabul qilishadi, chunki rivojlanishida nuqsoni bor shaxslarga ish berish uchun korxonalar talablarga tayyor emas. Jamoatchilikni va ish beruvchilarni rivojlanishida nuqsoni bor shaxslarga bo'sh ish yaratgani, ularni jamiyatga qo'shgani, kasbiy hayotga qo'shilishiga ijobiy yondashuvini rag'batlantirish kerak.

Kasbni to'g'ri tanlash inson hayotida davomida o'ziligi uchun qoyilgan qadamning eng muhumidir, hayot davomidagi muvaffaqiyatlari va shu qatorda muvaffaqiyatsizligi ham kasbni qanchalik to'g'ri tanlaganligidadur. Kasbni to'g'ri tanlash har bir yosh avlodning qiziqishiga, uning qobilyatlariga, imkoniyatlariga va shu qatorda sog'lig'iga, o'zlashtirish darajasiga mos bo'lishi kerak va o'z qiziqish va hissiyotlarini xisobga olish lozim. Inson o'z kasbi borasida bajarayotgan ishlariga ijodiy munosabatda bo'lsa va tanlagen kasbiga zo'r qiziqish bilan qarasa, o'z qobilyatlari mehnatda takomillashib borsagina unda natija bo'ladi, va jamiyatga



foyda keltiradi, eng muhammi kasbiga doir ishlar uni charchatmaydi yanada o'sishiga yordam beradi.

**Xulosa:** Rivojlanishida nuqsoni bor shaxslarni ta'lim va kasbga yo'naltirish jarayoni 20-asr davomida katta o'zgarishlarga uchradi. Eksklyuziya va segregatsiya davrlaridan boshlab, integratsiya va inklyuziya yondashuvlariga o'tish, bu shaxslarning jamiyatga to'laqonli qo'shilishini ta'minlash yo'lida muhim qadamlarga aylandi. Hozirgi kunda O'zbekistonda inklyuziv ta'lim hali to'liq rivojlanmagan bo'lsa-da, bu borada bir qator qadamlar tashlanmoqda. Maktablar va oliy ta'lim muassasalarida nogiron o'quvchilar uchun qulay sharoitlar yaratish, maxsus metodikalarni tatbiq qilish, hamda ularni kasbga yo'naltirishning muhimligi bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Kelajakda inklyuziv ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, nogiron shaxslarni jamiyatning barcha sohalariga to'laqonli qo'shish uchun yangi siyosatlar ishlab chiqilishi zarur. Maxsus o'quv markazlari va kasbiy ta'lim dasturlarini yaratish, maktablar va maktabgacha ta'lim o'quv muassasalarida rivojlanishida nuqsoni bor shaxslar uchun qulayliklar yaratish, ish korxonalarda maxsus ish o'rnlari tashkil etish va jamoatchilikni bu borada xabardor qilish orqali rivojlanishida nuqsoni bor shaxslarning jamiyatda faol va foydali a'zo bo'lishi uchun yanada ko'proq imkoniyatlar yaratilishi zarur.

**Eslatma:** Mazkur maqola O'zbekiston ta'lim tizimida rivojlanishida nuqsoni bor shaxslarni ta'lim va kasbga yo'naltirish jarayonidagi tarixiy va zamonaviy yondashuvlarni tahlil qilish maqsadida yozilgan.

#### REFERENCES:

1. SHARIPOV SHAVKAT SAFAROVICH, DAVLATOV KARIM, NASRIDDINOVA GULCHEHRA SALOHUDDINOVNA. KASBGA YO'NALTIRISHNING ILMIY - PEDAGOGIK ASOSLARI O'QUV QO'LLANMA.
2. SALIMOVA MARJONA SALOMOVNA. IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR UCHUN TA'LIM RIVOJLANISHINING TARIXIY JIHATLARI. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH NASHRIYOTI.